



**TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS**

VOLUME 7 / 2024

LABOR ECONOMICS

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ilmiy elektron jurnali

**LABOUR ECONOMICS AND
HUMAN CAPITAL**

scientific electronic journal

2024 yil 1-son

Volume 7, Issue 1, 2024



**МЕХНАТ ИҚТISODIYOTI
VA INSON KAPITALI**
ISSN: 3030-3117



LABORECONOMICS.UZ

МЕХНАТ ИҚТISODIYOTI VA INSON KAPITALI

№ 1-2024

**ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ
КАПИТАЛ**

LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 328/3-sonli qarori bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi.

Tahririyat manzili:

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi,
49 uy

Elektron manzil: ilmiymaktab@gmail.com

Jurnal web-sayti: www.laboreconomics.uz

Bog‘lanish uchun telefonlar:

+998998818698

Tahririyat Kengashi raisi:

(Chairman of the Editorial Board)

Abduraxmanov Qalandar Xodjayevich, O'zFA akademigi

Tahririyat Kengashi a'zolari:

(Members of the Editorial Board)

Toshqulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof.
Yusupov Axmadbek Tadjiyevich, i.f.d., prof.
Sharipov Kongratboy Avezimbetovich, t.f.d., prof
Raifkov Kudratilla Mirsagatovich, i.f.d., prof
Xalmuradov Rustam Ibragimovich, i.f.d., prof
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.
Nazarov Sharofiddin Xakimovich, i.f.d., prof.
Jumayev Nodir Xasiyatovich, i.f.d, prof.
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof.
Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof.
Zokirova Nodira Kalandarovna, i.f.d., prof.
Xudoyberdiyev Zayniddin Yavkachevich, i.f.d., prof.
Muxiddinov Erkin Madorbekovich, i.f.f.d., (PhD)
Xolmuxammedov Muhsinjon Murodullayevich, i.f.n., dots.
Amirov Lochinbek Fayzullayevich, i.f.f.d., (PhD), dots.
G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich, i.f.f.d., (PhD), dots.
Shakarov Zafar Gafarovich, i.f.f.d., (PhD)

Jamoatchilik Kengashi a'zolari:

(Community Council members)

Bred Bodenxauzen (AQSh)
Jon Ankor (Buyuk Britaniya)
Odegov Yuriy Gennadevich (Rossiya Federasiyasi)
Keynz Miller (AQSh)
Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)
Masato Xivatari (Yaponiya)
Gerxard Feldmayer (Germaniya)
Eko Shri Margianti (Indoneziya)
Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)
Rohana Ngah (Malayziya)
Sharifah Zanniyerah (Malayziya)
Teguh Dartanto (Indoneziya)
Nur Azlinna (Saudiya Arabistoni)
Muhammed Xoliq (Pokiston)
Alisher Dedaxonov (Toshkent)

Mas'ul muxarrir (Editor-in-Chief): G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich

Veb-administrator (Web admin): Musayev Xurshid Sharifjonovich

MUNDARIJA (CONTENTS)**MEHNAT BOZORI VA MEHNAT MUNOSABATLARI**

G.K.Abduraxmanova S.B.G'oyipnazarov S.P.Qurbonov	<i>Mamlakat aholisini unumli bandlik darajasini oshirish mexanizmini takomillashtirish</i>	7-18
B.E.Mamaraximov	<i>Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish yoshlar bandligini ta'minlash omili sifatida</i>	19-25
A.A.Yadgarov	<i>Agrar tarmoqni sufgurtalashda mалаkali кадрлар тайёрлаш ҳолати ва ривожлантириш истиқболлари</i>	26-32
S.P.Qurbonov	<i>O'zini o'zi band qilishda zaif bandlikdan unumli bandlik sari transformatsion jarayonlar</i>	33-45
N.R.Saidov	<i>Yangi ish o'rinlarini tashkil etishga investisiyalar ta'sirini ekonometrik tahlili</i>	46-56
F.O'.Masharipov	<i>Meʼnat bozorida хусусий сектор эҳтиёжи асосида ўрта бўғин кадрларини тайёрлаш: муаммолар ва ечимлар</i>	57-70
S.M.Kurbanbayeva	<i>Квалификационные рамки в современном образовании и рынке труда</i>	71-80
I.X.Xuvaydullayeva	<i>Миллий меҳнат bozorida инсон ресурсларидан самарали фойдаланишни имкониятлари</i>	81-90
G.R.Kuziyeva	<i>O'zbekistonda raqamlashtirish va ta'lim orqali mehnat unumdorligini oshirishning miqdoriy tahlili</i>	91-101

INSON KAPITALI

A.B.Irmatova A.M.Saidahmadov	<i>Raqamli iqtisodiyotda inson kapitalini rivojlantirishda o'qitish tizimi</i>	102-117
S.M.Dusanov	<i>Таълим тизимида молиявий ресурслар самарадорлигини оширишнинг ривожланган хорижий мамлакатлар тажрибасидан фойдаланиш имкониятлари</i>	118-134
I.I.Ergashev	<i>Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантиришда инвестициялардан фойдаланиш самарадорлигини баҳолаш услубиёти</i>	135-145
Sh.A.Xodjayeva	<i>Основы формирования и функционирования маркетинговой деятельности высших образовательных учреждений</i>	146-159

M.R.Babadjanova	<i>Иқтисодий категория сифатида инсон капиталининг моҳияти ва унда таълимни ўрни</i>	160-172
D.B.G'aniyeva	<i>Ходимларни ўқитиш ва ривожлантиришнинг дастурларининг самарадорлигини баҳолаш муаммолари</i>	173-184
INSON TARAQQIYOTI		
D.I.Iskandarova	<i>O'zbekistonda aholi daromadlari va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili</i>	185-194
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH		
M.X.Fayziyeva	<i>Kambag'allikni qisqartirishga raqamli texnologiyalarning ta'siri</i>	195-210
INSON RESURSLARINI BOSHQARISH		
M.Sh.Xaydarova	<i>Использование автоматизации и искусственного интеллекта в управлении человеческими ресурсами: тренды и ожидания</i>	211-221
M.M.Xolmatov	<i>Inson resurslarini samarali boshqaruvida inson kapitalini rivojlantirish</i>	222-232
G.Q.Mo'ydinova	<i>O'zbekistonda to'qimachilik korxonalarining rivojlanish holati va ularda xodimlarni boshqarish tendensiyalari tahlili</i>	233-238
O.I.Rasuljonov	<i>KPI – xodimlar faoliyati samaradorligini baholashning zamonaviy tizimi</i>	239-246
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH		
S.U.Ismailova D.U.Adilova	<i>Теоритические основы развития стратегии цифрового маркетинга на рынке сферы услуг и туризма</i>	247-254
Z.M.Jabborova	<i>Jizzax viloyatida kichik biznes va tadbirkorlikda mehnat munosabatlarining rivojlanishi holati</i>	255-263
S.S.Mamatqulov D.I.Iskandarova	<i>O'zbekistonda tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirish asosida aholi farovonligini yuksaltirish yo'llari</i>	264-274
M.Sh.To'xtayeva	<i>Platformalarda informatsion xaritalar – aholi tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantiruvchi vosita sifatida</i>	275-282
T.A.Urkinbayev	<i>Влияние реформ в сфере туризма на рост экономики Узбекистана и развитие предпринимательства</i>	283-292

D.A.Vahobov	<i>Кичик бизнес субъектлари фаолиятини инфратузилмавий қўллаб-қувватлаш тизимини такомиллаштириш</i>	293-305
Z.Dj.Adilova	<i>Factors and assessment methods in the development of HR branding: foreign experience</i>	306-314
GENDER TENGLIK		
O.U.Oxunova	<i>O'zbekiston mehnat bozorida gender tengligi: muammolar va islohotlar</i>	315-324



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



ISHCHI KUCHINI TAKROR ISHLAB CHIQARISH YOSHLAR BANDLIGINI TA'MINLASH OMILI SIFATIDA

Mamaraximov Bekzod Erkinovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Fundamental iqtisodiyot kafedrasi mudiri, dotsent

b.mamaraximov@tsue.uz

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a55

Annotatsiya. Ishchi kuchi resurslarining asosiy qismini yoshlar tashkil etishini hisobga olgan holda ularning bandligini ta'minlash iqtisodiy rivojlanishining eng muhim jihatlaridan biri bo'lib, ularni takror ishlab chiqarish tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish orqali bandligini ta'minlash uchun kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Tayanch so'zlar: yoshlar ishchi kuchi bozori, yoshlar bandligini ta'minlash, kadrlar tayyorlash strategiyasi.

ВОСПРОИЗВОДСТВА РАБОЧЕЙ СИЛЫ КАК ФАКТОР ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЗАНЯТОСТИ МОЛОДЕЖИ

Мамаракхимов Бекзод Эркинович

Заведующий кафедрой Фундаментальной экономики

Ташкентский государственный экономический университет,

доцент

Аннотация. Учитывая, что основную часть трудовых ресурсов составляют молодые люди, обеспечение их трудоустройства является одним из важнейших аспектов экономического развития, желательно и дальше совершенствовать систему подготовки и переподготовки кадров.

Ключевые слова: рынок рабочей силы молодежи, занятость молодежи, стратегия подготовки кадров.

REPRODUCTION OF THE LABOR FORCE AS A FACTOR OF PROVIDING EMPLOYMENT OF YOUTH

Mamarakhimov Bekzod Erkinovich

Head of the Department of "Fundamental economics"

Tashkent State University of Economics, associate professor

Abstract. Taking into account that young people make up the bulk of the labor, ensuring their employment is one of the most important aspects of economic development, it is desirable to further improve the system of training and retraining.

Keywords: youth labor market, employment of youth, strategy of a professional training.

Kirish

O‘zbekiston bozor munosabatlariga o‘tish jarayonida iqtisodiyot tarmoqlari tuzilmasini o‘zgartirmoqda. Bu qadamlar ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishga hamda mamlakatning eksport salohiyatini kuchaytirishga qaratilgan. Bu esa davlat iqtisodiy jihatdan o‘shishi va barqaror bo‘lishining kafolatidir. Shu munosabat bilan davlatimiz oldida yuzaga kelayotgan talaygina vazifalarni hal qilishga to‘g‘ri kelmoqda. Ustuvor vazifalardan biri ishchi kuchini qayta shakllantirish va uni boshqarish muammosini hal qilishdan iboratdir. Chunki, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ko‘rsatilganidek, “har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish” [2] asosiy maqsadimizdir.

Milliy iqtisodiyotda yoshlar ishchi kuchidan samarali foydalanib ishlab chiqarishni kengaytirish, aholi daromadlarini oshirish, inflatsiya va ishsizlik kabi muammolarni to‘g‘ri hal etishning asosiy yo‘llaridan biri hisoblanishi aniq. Sababi ishchi kuchi bozorini doimiy to‘ldirib, yangilab kirib keluvchilar bu yoshlardir. Ularni ish bilan ta‘minlash orqali esa ishsizlik masalasining katta qismini hal etish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Ishchi kuchi bozorining shakllanishiga turli omil va shart-sharoitlar ta‘sir qiladi. Ushbu omil va shart-sharoitlar O‘zbekistondagi hududiy ishchi kuchi bozorlarining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilab beradi. Keng ma‘noda, mehnat bozori mehnatdan foydalanishga bo‘lgan talab va uni ma‘lum bir narxda yetkazib berish bilan belgilanadigan almashinuvni ta‘minlaydigan ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy normalar va institutlar tizimi yoki umumiy ma‘noda mehnatni yollash va undan foydalanish bilan bog‘liq munosabatlar majmui tarzida ifodalanishi mumkin.

Akademik Abduraxmonovning fikricha, “mehnat resurslarini taqsimlaydigan va ish bilan bandlik borasida qarorlar qabul qiladigan bozor mehnat bozori”⁶ deb ataladi. Shu nuqtayi nazardan, muhim xususiyatlarini o‘rganishga tizimli yondashuvdan foydalangan holda, bandlikka to‘laqonli ta‘rif berishimiz mumkin. Ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida aholini ish bilan ta‘minlash va umuman mehnat bozori iqtisodiyot sohasining ko‘zga ko‘ringan olimlarining qarashlarida o‘z aksini topgan. O‘zbekistonda ishchi kuchi bozorining samarali rivojlanishi va ishsizlikni kamaytirish Q.Abdurahmonov⁷ (mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lmagan yoshlarni ish bilan ta‘minlash), Sh.Xolmo‘minov⁸ va K.Xomitov⁹ (qishloq mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishi), Z.Xudoyberdiyev¹⁰ (tadbirkorlik va ishga joylashtirish

⁶ Q.X.Abdurahmonov. “Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot”. Darslik. – T.: “Fan”, 2019.

⁷ Q.X.Abdurahmonov. “Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot”. Darslik. – T.: “Fan”, 2019.

⁸ Xolmo‘minov Sh.R. (2014) Qishloq mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishi hamda ularni modellashtirish (Monografiya). –T.: Fan va texnologiya. 2014.

⁹ Xomitov K.Z. (2012) O‘zbekiston Respublikasi qishloq mehnat bozorining samarali rivojlanishi muammolari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –T.: O‘zR FA Iqtisodiyot instituti, 2012

¹⁰ Xudoyberdiyev Z.Ya. Tadbirkorlik va ishga joylashtirish texnologiyasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: ILMZIYO. 2016

texnologiyasi), M.Xolmuxamedov¹¹ (mehnat bozorida yoshlarning ish bilan bandligini tartibga solish), D.Nasimov¹² (oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish), B.Tagayev¹³ (zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimda yoshlar bandligini boshqarish) va boshqa iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tizimli tahlil, iqtisodiy tadqiq etish metodologiyasi, taqqoslash, deduktsiya kabi tadqiqot usullaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Yoshlar ishchi kuchi bozorida munosabatga kirishar ekanlar, o’zlari uchun maqbul ish topish, ish joyi, shart-sharoitlari, kasb-kori, nufuzi, mehnat jarayonining intensivligi, davomiyligi bilan bog’liq ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy muammolarga duch keladi. Hozirgi yoshlarning jamiyatda o’z o’rnilarini topishlari, ishchi kuchi bozori talablariga javob berishga tayyor ekanliklari o’ziga xos xususiyatlarga egadir.

Axborot muhitining globallashuvi, yuqori turmush darajasi andozalarining tez va keng tarqalishi yoshlar hayotiy ehtiyojlari muttasil ortib borayotgani holda ularni qondirish imkoniyatlarining cheklanganligi sababli yoshlar bilan bog’liq ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni yanada o’tkirlashtiradi.

Yoshlarning mehnatga jalb etilishi jarayonida ular nuqtai nazaridan ayrim kasb va ixtisosliklarning nufuzi pasayganligi holda boshqalari, aksincha, ancha yuqoriga ko’tarilganligini ham ko’rsatish darkor. Bu yerda gap umuman malakali mehnat nufuzi pasayganligi to’g’risida emas, balki yuqori malaka talab etuvchi ixtisosliklar doirasida ustuvorliklar o’zgarganligi haqida ketmoqda.

Yoshlar mehnat faoliyatining boshlanishi ularning hayotida kasbga ko’nikishlari bilan bog’liq bo’lgan o’zgarishlarga sabab bo’ladi. Bunga eng avvalo, yoshlar kelib qo’shiladigan mehnat jamoasidagi muhit, ijtimoiy-kasb qadriyatlarini, kasb faoliyatining tub jihatdan yangi turi, ishlab chiqarish munosabatlari xususiyatlari va boshqa omillar ta’sir etadi.

Yoshlarda esa bo’lajak ish o’rni, mehnat sharoitlari va mazmuni, ayniqsa, ish haqi miqdoriga talab nihoyatda katta bo’ladi. Bu – ish beruvchining yoshlarga ish kuchi sifatidagi bahosi bilan yoshlarning o’zlari o’zlarini baholashlari o’rtasida ziddiyatni yuzaga chiqaradi. Huddi ana shu yoshlarning ish bilan bandligini ta’minlashdagi eng jiddiy muammolardan biri hisoblanadi.

Yoshlarni ish bilan ta’minlashda ularning ma’lumoti katta ahamiyatga egadir. Ilm-fan jadal taraqqiy etayotgan, ishlab chiqarishga eng zamonaviy

¹¹ Xolmuxamedov M.M. (2011) Mehnat bozoridayoshlarning ish bilan bandligini tartibga solish va unitakomillashtirish (Samarqand viloyati misolida). Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Samarqand.

¹² Nasimov D.A. Oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish (Samarqand viloyati misolida). Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Samarqand 2011.

¹³ B.Tagayev. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimda yoshlar bandligini boshqarishning nazariy jihatlarini / “Iqtisodiy taraqqiyot va taxlil” jurnali. 2023-yil, oktabr. <https://e-itt.uz/index.php/eitt/article/view/201/191>

texnologiyalar joriy etilayotgan bugungi kunda ish kuchi ma’lumoti va malakasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizdagi demografik ko’rsatkichlarning aholi yoshi bo’yicha dinamikasi keltirilgan. Unga ko’ra keyingi 5 yil mobaynida mehnatga layoqatli yoshdan katta aholi soni 21,9 foizga oshgan (1-jadval). Bunday holat ijtimoiy ta’minot bilan bog’liq masalalarni kuchaytirishni talab etadi.

1-jadval.

Aholining yosh tarkibi bo’yicha taqsimlanishi (yil boshiga; ming kishi)

Ko’rsatkichlar S ‘w	2020	2021	2022	2023	2020 yilga nisbatan 2023 yilda
Jami aholi soni	33905,2	34558,9	35271,3	36024,9	106,3
0-14 yosh	9870,3	10175,8	10518,5	10835,5	109,8
15-19	2559,0	2569,7	2616,2	2697,4	105,4
20-54	17197,8	17360,6	17505,8	17686,2	102,8
55-59	1515,7	1528,1	1527,5	1522,2	100,4
60 yoshdan yuqori	2762,5	2924,6	3103,4	3283,7	118,9

Manba: O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Jahon banki ma’lumotlariga ko’ra, G’arbiy Yevropa mamlakatlari milliy boyligi tarkibida asosiy ishlab chiqarish fondlari (bino va inshootlar, mashina va dastgohlar) hamda tabiiy resurslar 23,2 foizni, inson kapitali esa 74,0 foizni tashkil etadi.

2-jadval.

Aholining yosh tarkibi bo’yicha taqsimlanishi (ming kishi)

Jami aholi soni	0-15 yoshdagilar	16-60 yoshdagilar	60 yoshdan yuqorilar
36 024,9	11 437,4	21 303,9	3 283,6
Jami aholiga nisbatan foizda	31,7	59,1	9,1

Manba: O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Hozirgi iqtisodiy sharoitda ishchi kuchining soniga e’tibor qaratilmasdan uning sifatiga, uning kasbiy malaka darajasiga yuqori talablar qo’yilayapti. Kadrlar tayyorlash tizimi ishlab chiqarishni rivojlantirish, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va aholini samarali ish bilan ta’minlashning asosiy omili bo’lib hisoblanadi. Kadrlar tayyorlash tizimining asosiy bo’g’ini

hisoblangan kasb-hunar ta’lim tizimi mehnat bozori kon’yunkturasiga hamda ish beruvchilarning talab va ehtiyojiga qaratilgan bo’lishi kerak.

Ishchi kuchi bozorida yoshlarning ish bilan bandligi ko’p jihatdan shu yerda yashovchi yoshlarning bilim darajasiga va umumiy saviyasiga bog’liqdir. Tadqiqotlar shuni ko’rsatmoqdaki, yuqori malakaga ega bo’lgan kadrlar ishchi kuchi bozorida yuqori imkoniyatga ega bo’ladilar. Shu bilan birga, statistik ma’lumotlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, ishsizlarning asosiy qismini malakasi va bilim darajasi past bo’lgan ishchi kuchi tashkil etadi.

Shuningdek, “Yoshlar bandligi dasturlari” doirasida 2023-yilda 686314 nafar yoshlarning bandligiga ko’maklashish ko’zda tutilmoqda.

Ma’lumki, 2023-yil 11-aprel kuni O’zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida “Yoshlar siyosati sohasidagi ishlar natijadorligini oshirish hamda ular bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari” to’g’risida o’tkazilgan videoselektor yig’ilishi bo’lib o’tdi.

Unda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash yuzasidan har bir hududda ishsiz hamda ishchi kuchi bozoriga kirib kelayotgan yoshlar bandligiga ko’maklashish maqsadida hududiy hokimliklar, Kambag’allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Yoshlar siyosati va sport vazirliklarining hududiy boshqarmalari bilan hamkorlikda “Yoshlar bandligi dasturlari” ishlab chiqilib, tasdiqlandi.

Unga ko’ra, ishchi kuchi bozoriga kirib kelayotgan:¹⁴

- 143,2 ming nafar bitiruvchilarni korxonalar va tashkilotlardagi bo’sh ish o’rinlariga ishga joylashtirish;
- 53,4 ming nafarini kasb-hunar va tadbirkorlikka o’qitish;
- 15,1 ming nafarini haq to’lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish;
- 20,3 ming nafarini har bir tadbirkor – yoshlarga madadkor tadbirlari asosida tadbirkorlarga birlashtirish;
- 10,8 ming nafarini “Usta shogird” asosida hunarmandlarga birlashtirish;
- 27,9 ming nafarini qishloq xo’jaligidan yer ajratish orqali bandligini ta’minlash;
- 69,2 ming nafarini o’zini -o’zi band qilgan shaxs sifatida ro’yxatdan o’tkazish;
- 19,1 ming nafariga tijorat banklari tomonidan kreditlar ajratish orqali bandligini ta’minlash;
- 31,1 ming nafariga subsidiya ajratish orqali bandligini ta’minlash;
- 243,3 ming nafari boshqa yo’nalishlarda (OTMga o’qishga kiradiganlar) bandligini ta’minlash ko’zda tutilgan.

Ma’lumot uchun, joriy yilda umumiy o’rta-ta’lim maktablari, kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari soni 686 314 nafarni tashkil qilmoqda.

¹⁴ <https://mehnat.uz/oz/news/yoshlar-bandligi-dasturlari>

Ishchi kuchi bozorida uzoq muddatli istiqbollashtirishning yo‘qligi, bilim yurtlari hamda ish beruvchilar o‘rtasidagi aloqalarning mustahkam emasligi, ishchi va mutaxassis-xodimlar tayyorlashda optimal tizim yaratishni qiyinlashtirmoqda. Ishchi kuchi bozorida ko‘pgina mutaxassisliklarga talabning pastligi, ish yuritish malakasining yo‘qligi, mustaqil hayotga endi qadam qo‘yayotgan yoshlar uchun ish bilan bandlikni ta‘minlashni ancha jiddiy muammo hisoblanadi.

Oliy ta‘lim tizimida kadrlar tayyorlash strategiyasi ish bilan bandlik sohasidagi jarayonlarni hisobga olishi zarur. Ishchi kuchi bozorini tadqiq etish orqali mintaqadagi kadrlar tayyorlash tizimini bozor iqtisodiyoti munosabatlariga moslashtirish yo‘llarini aniqlash kerak.

Xulosa

Mamlakatimiz aholisi salmog‘ida yoshlarning ulushi ancha ko‘p hisoblanadi, ishchi kuchi resurslari tarkibiga kirib keluvchilarning katta qismini yoshlar tashkil qiladi. Respublikamizda aholini tez sur‘atlar bilan ko‘payishi natijasida hozirgi kunga kelib, hududiy demografik jihatdan zichlashib bormoqda. Oqibatda yoshlarni, ayniqsa, qishloq yoshlarini ish bilan bandligini ta‘minlashda jiddiy muammolarni vujudga keltirmoqda. Yoshlar o‘rtasida ishsizlikni kamaytirish, ularning ishchi kuchi bozoridagi xatti-harakati qator jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy yechimini kutayotgan masalalardan biri hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda quyidagilarni aytib o‘tish mumkin:

1. Ishchi va mutaxassislar tayyorlash dasturi hamda ishchi kuchi bozoridagi talab o‘rtasida nomutanosiblik mavjud. Bu masalaning yechimi respublika kambag‘allikni qisqartirish va bandlik organlari, korxonalar va tashkilotlar hamda o‘quv yurtlari tomonidan bir kelishuvga erishishdir.

2. Yoshlarni o‘smirlik vaqtidan boshlab oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida kasanachilik faoliyatini amalga oshirayotgan tadbirkorlarga birlashtirish va ularning kasb-korlarini o‘rganishlarini ta‘minlash, lozim hollarda ularga subsidiyalar yoki imtiyozlar berish orqali qo‘llab-quvvatlash maqsadga muvofiq.

3. Yoshlarni ish bilan ta‘minlashni yaxshilashning qo‘shimcha imkoniyatlarini nodavlat tashkilotlarini personalni tanlash va ularni ish bilan ta‘minlashda faol qatnashishga da‘vat etish orqali oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. 2022 yil 28-oktabr. <https://lex.uz/ru/pdfs/6257288>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-158-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/6600413>

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.01.2022 yildagi PQ-92-son “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori

5. Q.X.Abdurahmonov. “Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot”. Darslik. – T.: “Fan”, 2019.

6. Xolmo‘minov Sh.R. Qishloq mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishi hamda ularni modellashtirish (Monografiya). –T.: Fan va texnologiya. 2014

7. Xolmuxamedov M.M. Mehnat bozoridayoshlarning ish bilan bandligini tartibga solish va unitakomillashtirish (Samarqand viloyati misolida). Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Samarqand, 2021.

8. Xomitov K.Z. O‘zbekiston Respublikasi qishloq mehnat bozorining samarali rivojlanishi muammolari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –T.: O‘zR FA Iqtisodiyot instituti, 2012.

9. Xudoyberdiyev Z.Ya. Tadbirkorlik va ishga joylashtirish texnologiyasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: ILMZIYO, 2016.

10. Nasimov D.A. Oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish (Samarqand viloyati misolida). Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Samarqand, 2011.

11. B.Tagayev. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimda yoshlar bandligini boshqarishning nazariy jihatlari / “Iqtisodiy taraqqiyot va taxlil” jurnali. 2023-yil, oktabr. <https://e-itt.uz/index.php/eitt/article/view/201/191>

12. www.stat.uz – (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi).

13. www.uza.uz – (O‘zbekiston milliy axborot agentligi).

Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali



+998 71 239 28 13

Tashkent, Uzbekistan

ilmiymaktab@gmail.com

www.laboreconomics.uz